

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti "Axborot-resurs markazi"ning Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasiga masofadan turib a'zo bo'lish tartibi haqida ma'lumotnomasi



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti "Axborot-resurs markazi"ning Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasiga masofadan turib a'zo bo'lish tartibi haqida ma'lumotnomasi.

1. Masofadan turib Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasiga a'zo bo'lish tartibi:

-Foydalanuvchilar kutubxonaga tashrif buyurib va masofadan turib ham a'zo bo'lishlari mumkin (ONLINE a'zo bo'lish).

-Buning uchun siz, ibs.natlib.uz saytidagi a'zolik kartochkasini to'ldirishingiz kerak. Milliy kutubxona saytida a'zo bo'lib, siz elektron foydalanuvchi kartaga ega bo'lasiz va u orqali kutubxona saytidagi elektron katalogdan qidiruvni amalga oshira olasiz. Chop etilgan kitoblarni buyurtma qilish, o'quv zallari, elektron resurslar, nashrlar va litsenziyali ma'lumotlar bazasidan foydalanish va boshqa turdagi qo'shimcha xizmatlarni amalga oshirish uchun, Siz alabatta kutubxonaning o'zida foydalanuvchi sifatida a'zo bo'lishingiz va a'zolik kartasini olishingiz lozim.

Elektron buyurtmalarni muvofiqlashtirish va resurslarni masofaga yetkazib berish xizmati: foydalanuvchilarga Kutubxonaning axborot-kutubxona fondi axborot-kutubxona resurslarining ma'lum qismi (15%)ni bepul masofadan turib elektron pochta orqali yetkazib beradi.

Elektron buyurtmalarni muvofiqlashtirish va resurslarni masofaga yetkazib berish xizmati an'anaviy hamda masofadan turib Milliy kutubxona xodimlariga, respublikaning barcha axborot-kutubxonalari, yuridik maqomga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlar, professor-doktorlar, akademiklarga shuningdek, chet el fuqarolari va xorijiy korxonalar xodimlariga xizmat ko'rsatadi.

An'anaviy xizmat ko'rsatishda foydalanuvchi ma'lumotdan vaqtincha foydalanish uchun elektron yoki an'anaviy tarzda buyurtma berishi mumkin.

Masofadan xizmat ko'rsatishdabuyurtmalar elektron shaklda qabul qilinadi, tayyorlanadi hamda sifatli va tezkorlik bilan foydalanuvchiga yuboriladi.

Ma'lumotlar asl nusxada, ko'chirma nusxa yoki elektron ko'rinishda taqdim etilishi mumkin.

Kutubxonalararo xizmat ko'rsatishning yangi shakli - elektron resurslarni masofaga yetkazib berish xizmati bo'lib, ushbu xizmat turidan foydalanish buyurtmalar bajarish muddatini sezilarli darajada qisqartiradi.

Elektron resurslarni masofaga yetkazib berish xizmati - pullik xizmat ko'rsatish turi bo'lib, foydalanuvchiga (yuridik va jismoniy shaxslarga) kutubxona fondidagi nashrlarning elektron nusxasini qo'lga kiritishga imkon yaratadi. Izoh: Buning uchun kutubxonaga a'zo qilish vaqtida foydalanuvchining talabiga ko'ra "Schet(xisob raqami)" ochiladi.

2. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti 2017-2018 o'quv yili magistrlik dissertatsiyalarining Axborot - resurs markazida mavjud IRBIS tizimining "Elektron katalogi"da to'liq matnli MD- Magistrlik dissertatsiya nomli ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Endilikda institut talabalari, 2017-2018 o'quv yilidagi magistrlik dissertatsiyalaridan sohalari bo'yicha bilimlarini oshirishda foydalanishlari mumkin.

Axborot - resurs markazi direktori v.b M.X. Axmedova.